

ERKIN VOHIDOV SHE'RLARIDA TASHXIS SAN'ATINING QO'LLANISHI

Dilfuza SHADIYEVA

*ISFT instituti o'qituvchisi,
filologiya fanlari nomzodi*

Abstract:

this article analyzes the use of the stylistic figure tashhis (personification) in Uzbek literature, in particular in the poems of Erkin Vakhidov, as well as the interconnectedness of other stylistic figures and their meaning.

Key words

classical literature, tashhis (personification), image, state of mind, metaphor, radif, intok, animation, comparison, tanosub, tazhnis, imagery.

Аннотация

в данной статье проанализировано использование поэтической фигуры ташхис (персонификация) в узбекской литературе, в частности в стихах Эркина Вахидова, а также связанные с ним другие поэтические фигуры и их значения.

Ключевые слова

классическая литература, ташхис (персонификация), образ, душевное состояние, метафора, радиф, инток, одушевление, сравнение, таносуб, тажнис, образность.

Annotatsiya

ushbu maqolada Erkin Vohidov she'rlarida tashxis san'atining qo'llanishi va uning badiiy vazifasi, u bilan bog'liq san'atlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar

mumtoz adabiyot, tashxis, obraz, ruhiy holat, metafora, radif, intoq, jonlantirish, tashbeh, tanosub, husni ta'lil, tajnis, obrazlilik.

Mumtoz adabiyot namunalarida faol qo'llangan tashxis, ya'ni jonlantirish "hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chirish san'atidir" [1, 38]. Shoir badiiy obrazni quyuqlashtirish, kitobxon ko'z o'ngida yaqqolroq gavdalantirish uchun tashxis san'atini qo'llaydi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida ham bu san'atni qo'llashga alohida ahamiyat

beriladi. Jumladan, Erkin Vohidov she'rlarida ham tashxisning go'zal namunalari uchratish mumkin.

Mumtoz adabiyot an'analari asosida yozilgan "Yoshlik devoni"dagi she'rlarning juda katta qismida tashxis qo'llangan [1, 38]. She'rlarda qo'llangan tashxisni bir necha yo'nalishda tadqiq etish mumkin:

1. Insonga xos bo'lgan ruhiy holatni predmetlarga ko'chirish. Bunga misol sifatida ushbu misralarni keltirish mumkin:

Voh ajab, o'z nargisiga

Bandi bo'lmish, ne iloj.

Indamay kiprik – tikan

Zahmin chekar nomusli barg. ("Barg")

Keltirilgan badda bir emas, uch o'rinda tashxis qo'llangan: bandi bo'lmoq, indamaslik, tikan zahmini chekmoq. Uchala o'rinda ham insonning turli ruhiy holati o'simlik va uning qismlarida jonlantirilgan. Shu bilan birga, asosiy e'tibor gulga emas, radif sifatida keltirilgan "barg"ga qaratiladi.

Karnay gulning

Og'zi ochiq, vola-yu hayron,

Nargisning, ajab,

Ikki ko'zi sanda bo'libdur. ("Gullar bazmi")

Ushbu misralarda predmetlarning tashqi ko'rinishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, insonning hayratda qolish hamda termulib turish holatlariga qiyoslangan. Natijada metafora asosida ma'no ko'chishi yuzaga kelgan. Bu she'riyat uchun xos bo'lib, o'quvchining tasavvur doirasini yanada kengaytiradi.

Tabiat manzaralarini tasvirlashda ham tashxis san'atining o'рни bo'lakcha. Misol uchun, "Sarv" she'rida tungi manzara tasvirida ham tashxisdan foydalanilgan:

Kecha oydin, mavjli dengiz,

Kuy to'qir bedor sarv.

Odatda, ijod bilan bog'liq soha vakillari (shoirilar, rassomlar, musiqachilar) sokinlikni, yolg'izlikni xushlashadi. Xuddi shu xususiyat sarvga ko'chirilgan.

Erkin Vohidov tashxis san'atini qo'llashda ayrim o'rinlarda sinonimik imkoniyatlardan ham unumli foydalangan. Buni "Rubobim tori ikkidur" she'rida ham kuzatish mumkin:

Rubobim tori ikkidur:

Biri quvnoq, biri mahzun,

Ki baytim satri ikkidur:

Biri dilxush, biri dilxun.

Misralardagi turkiy qatlamga xos bo'lgan quvnoq (xush kayfiyatli, xushchaqchaq) [5, V, 361] va forsiy dilxush (qalbi shod, xursand, mamnun) [5, 1, 618]; arabcha mahzun (g'amli, xafa) [5, II, 573] hamda forsiy dilxun (yuragi qon, qalbi yaralangan, g'am-alamli) [5,

I, 618] o'zaro ma'nodosh so'zlar "ikki"ning birini biriga qarshilantirishda ham o'ziga xoslikni ta'minlagan. Ziyrak kitobxon bu parchada rubob torlari va she'r baytlaridagi misralar o'zaro chog'ishtirilganligini ilg'ab oladi. Bu esa parallelizmni ham yuzaga keltirgan.

2. Bu yo'nalishda predmetlar insonga xos jismoniy xatti-harakatlar bilan "jonlantirildi".

Tark etib ko'shkin, savatga

Qo'ydi bosh, izlab seni

Charx urib bozor ichida

Bo'ldi sargardon uzum. ("Uzum")

O'zbeklarning kundalik turmush manzaralariga asoslangan ushbu tasvirni o'qigan kitobxon bozor rastalarida sotilayotgan savat-savat uzumlarni yaqqol tasavvur eta oladi.

Yuqorida tahlil qilingan misralarda, asosan, o'simliklar jonlantirilgan bo'lsa, keyingi parchalarda tabiat hodisalari, osmon jismlariga diqqat qilingan:

Falak yulduzdan o't yoqmish

Bukun to'yning qozoniga,

Somon yo'lin shakar aylab

Cho'michdek tutdi Hulkarni. ("Do'stlarimga")

Quyidagi misralarda esa tong jonlantiriladi:

Shafaq ko'zguna

O'z husniga oshiq bo'lib boqmish.

Va tog'larni taroq aylab,

Sochi zarrin taroqlabdur. ("Tong g'azali")

Ushbu misralarda tashxis bilan birga tashbeh san'ati ham juda chiroyli tarzda qo'lingan: shafaq ko'zguna, tog'lar taroq tishlariga, chiqib kelayotgan quyosh nurlari esa tilla sochlarga qiyoslab berilgan.

3. Adabiyotda "intoq" deb ataluvchi she'riy san'at mavjud bo'lib, u tashxisga asoslanadi. Ushbu san'at "gapirtirish", "so'zlatish" ma'nosini anglatadi va "badiiy asarda hayvonlar, jonsiz narsalarni odamlarga o'xshatib so'zlatishni nazarda tutadi" [1, 41]. Lekin tashxis qo'llangan barcha o'rinlarda intoq uchrayvermaydi.

Erkin Vohidov ijodida ham bu she'riy san'atdan unumli foydalanilgan:

Gullar ichida

Shohi o'zim der edi lola,

Mag'rurligidan

Ul o'zi sharmanda bo'libdur. ("Gullar bazmi")

Odatda, mumtoz adabiyotimizda ham, zamonaviy she'riyatda ham gullar orasida eng ko'p lola va atirgul tilga olinadi. Bu o'rinda lolaning qizilligi juda ohorli asoslanishi bir qatorda uning shakli tojga o'xshash ekanligi sababli shohlik da'vo qilishi ham badiiy topilmadir. Keyingi misolda ham lola bilan suhbat intoqning ajoyib namunasi hisoblanadi:

[Lola]

Deydi: qiziq savoling,

Qayda ajab, xayoling,

Yellar ko'rib bu holing

Kulmoqda, bolasanmu? ("Lola")

"Lola" she'ri lirik qahramon va lolaning o'zaro suhbatida intoqni yuzaga keltirgan bo'lsa, "Ko'chamen" radifli she'r boshidan oxirigacha ko'cha tilidan bayon etilgan:

Har ko'cha obod, hamon men

Turfa vayron ko'chamen.

Yozda changiston-u qishda

Balchig'iston ko'chamen. ("Ko'chamen")

Ko'chadagi tartibsizliklar, sarson-sargardonchilik haqidagi shikoyat odamlar tilidan emas, aynan ko'chaning tilidan aytilishi ham o'ziga xos bir uslubdir.

Tashxis san'atini qo'llashda xalqonalikni kuchaytirish maqsadida iboralardan samarali foydalaniladi. Xususan, "Yoshlik devoni"da bunday misollar ko'plab topiladi:

Lol-u gungman, boisi sarv,

U seni ko'rgach kecha

Yerga kirmabdir, taajjub,

Bu qadar beor sarv. ("Sarv")

Rost, Qalam timsoli she'r,

Timsoli tig', timsoli haq,

Boshini ming kesdilar,

Bosh egmadi asl Qalam. ("Qalam")

Bu bandlardagi "uyatdan yerga kirib ketmoq", "bosh egmoq" iboralarining bo'lishsiz tarzda berilishi sarv va qalamning to'g'ri shaklda ekanligiga ham bir ishoradir.

Tashxis bilan bog'liq yana bir jihat: bu san'at boshqa bir necha badiiy san'atlar bilan birga mutanosib tarzda qo'llanishi ham badiiy obrazni qabartirib beradi. Masalan:

Kimki oshiqlikni da'vo

Aylasa shuldir jazo,

Oqibat xum ichra bo'ldi

Mahkumi zindon uzum. ("Uzum")

Keltirilgan bandda da'vo aylamoq, jazo, mahkum bo'lmoq, zindon kabi birliklarning qo'llanishi tanosub san'atini hosil qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uzumlarni xumga solib, sirka qilish odati shoirona dalillanib, husni ta'lil yuzaga keltirilgan. Jinoyatchi aybi uchun jazo olishi muqarrar. Uzum oshiqlikni da'vo qilib gunoh qildi, oqibatda u zindonga, ya'ni xumga tushishga hukm etildi. Aynan shu she'rning yana bir bandida tashxis va husni ta'lilning ajoyib uyg'unlashuvini ko'rish mumkin:

*Termular shabnamli yaproq –
Ostidan pinhon uzum,
Lablaringga yetmoq istab
Tong sahar giryon uzum.*

Ya'ni tong saharda o't-o'lanlar, mevalarning yuzida shabnam bo'lishi tunning salqinligi bilan bog'liq hodisadir. Shoir nazarida esa uzumga tushgan shabnam aslini olganda uning ko'z yoshlaridir.

*Saf-saf tizilib,
Safsar oyog'ingga qo'yib sar,
Band-band uzilib
Joni bilan bandi bo'libdur.*

*Qirq boshlarimiz,
Qirq deya qirq og'a-ini gul,
Tig'ingga ular
Bari sarafkanda bo'libdur. ("Gullar bazmi")*

Bu bandlarning birinchisidagi safsar so'zining "saf" (arabcha) va "sar" (forscha) so'zlarga ajratilishi tajnis san'atiga asos bo'lgan. Ikkinchi bandda esa tajnis uchun turkiy so'z hisoblangan hamda fe'l va ot turkumi o'rtasida shakldosh hisoblangan qirq so'zi so'z o'yinini hosil qilgan.

Shuningdek, tashxis san'ati bilan birga tarde aksning uyg'unlashuvidan juda chiroyli manzara hosil qilingan:

*Qancha osma ko'zguni,
Qancha qoqma mix birlan,
Haq yuzing etib oshkor,
Mix qilib qoqar ko'zgu. ("Ko'zgu")*

Demak, tashxis kitobxon ko'z o'ngida predmetlarni jonlantirish orqali uning tasavvur doirasini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Arablarda "Eng chiroyli she'r eng yolg'on she'rdir" degan gap bor. Shoirning mahorati ana shu "chiroyli yolg'on" orqali o'quvchini ishontira olishdadir. Bunda boshqa san'atlar qatorida tashxisning o'рни katta.

Yuqoridagi misollardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- tashxis san'ati boshqa she'riy san'atlar kabi kitobxonda estetik zavq hissini yanada oshiradi;
- tashxis san'ati qo'llangan misralarda bir necha she'riy san'atlarning uyg'un qo'llanishi obrazlilikni kuchaytiradi;
- tashxis muallifning xayolot dunyosi naqadar keng va boy ekanligidan dalolat bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 1998.
2. Erkin Vohidov. Yoshlik devoni. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1969.
3. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – T.: Fan, 1977.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T.: Fan, 2007.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1–5-jildlar. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.